

**TURKISTON MUXTORIYATINING TASHKIL TOPISHI HAMDA
O'ZBEK DAVLATCHILIGIDAGI AHAMIYATI**

IIV Namangan akademik litseyi

Tarix fani o'qituvchisi

Xamdamov Obidjon Maxammadjonovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1917-yilda tashkil topgan Turkiston muxtoriyati tarixiy voqeligiga tayanilgan holda, uning tashkil topish sabablari, tarixiy zarurati va siyosiy-ijtimoiy asoslari tahlil qilinadi. Ayniqsa, muxtoriyat g'oyasining shakllanishi, unga yetakchilik qilgan ziyolilar guruhi, qabul qilingan konstitutsiyaviy qarorlar va ularning davlatchilik tarixidagi o'rni chuqur yoritiladi. Shuningdek, Turkiston muxtoriyati o'zbek milliy davlatchiligining shakllanishida o'ynagan roli, mustaqillik g'oyalarining ildizlari, milliy elita faolligi va mustamlakachilikka qarshi siyosiy harakatlar kontekstida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Turkiston muxtoriyati, o'zbek davlatchiligi, milliy uyg'onish, jadidchilik, avtonomiya, mustamlakachilik, Qo'qon muxtoriyati, mustaqillik g'oyasi, siyosiy elita.

Turkiston muxtoriyatining tashkil topishi 1917-yilgi Rossiya imperiyasining qulashi, xususan, Fevral va Oktyabr inqiloblari natijasida yuzaga kelgan siyosiy bo'shliq davrida yuz berdi. Inqilobdan keyin imperiyaning chekka hududlarida yashovchi xalqlar o'z siyosiy taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'la boshladilar. Bu holat mustamlaka sharoitida yashab kelgan turkistonlik musulmon xalqlar, ayniqsa, o'zbeklar uchun milliy tiklanish va siyosiy mustaqillik sari muhim imkoniyat bo'ldi. Shu davrda Turkistonda faoliyat yuritgan jadid ziyolilari bu vaziyatdan foydalanib, o'z milliy siyosiy tuzilmalarini barpo etishga harakat qildilar. Ular o'tmishdagi xonliklar davrining feodal tuzumi o'rniga zamonaviy konstitutsiyaviy boshqaruvga asoslangan mustaqil yoki muxtor davlat barpo etishni maqsad qildilar.



Turkiston muxtoriyati – 1917-yilgi Fevral inqilobi ortidan shakllangan siyosiy-ijtimoiy muhitda milliy uygʻonish va mustaqil davlatchilik gʻoyalari asosida yuzaga kelgan tarixiy hodisadir. Bu muxtoriyat oʻzbek xalqining milliy oʻzlikni anglash yoʻlidagi dastlabki siyosiy tajribasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning tashkil topishi – asrlar davomida mustamlakachilik bosimi ostida yashagan Turkiston xalqlari, xususan oʻzbek ziyolilari va xalqining erkinlik, tenglik va adolatga asoslangan davlat tuzish orzusining ifodasidir. 1917-yilgi Oktabr toʻntarishidan soʻng Rossiyada markaziy hokimiyat zaiflashdi. Bu esa imperiya tarkibidagi xalqlarga oʻz taqdirini oʻzi belgilash imkonini yaratdi. Shu sharoitda jadid ziyolilari – Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xoʻjayev, Abdurauf Fitrat kabi ilgʻor fikrli shaxslar Qoʻqon shahrida Turkiston muxtoriyatini eʻlon qilishdi. 1917 yil 26–28 noyabr kunlari Qoʻqon shahrida katta qurultoy boʻlib oʻtadi. «Umumturkiston oʻlka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi» deb nomlangan yigʻilishga Markaziy Osiyoning barcha hududlaridan vakillar chaqiriladi. Yigʻilishda qatnashayotgan koʻpchilik musulmon ziyolilarning xohish-istagi bilan Qurultoyga Turkiston oʻlkasida yashovchi Yevropa millatiga mansub vakillar ham qatnashdi. Qurultoyda asosiy muhokama Turkiston kelajagi haqida boʻladi. Vakillar Turkistonni mustaqil davlat deb eʻlon qilish yoki Rossiya tarkibida muxtor respublika sifatida qoldirish masalasini koʻrib chiqishadi. Oxir-oqibat koʻpchilik vakillar Turkiston oʻlkasini Rossiya tarkibida muxtor respublika deb eʻlon qilish kerak deb ovoz berishadi. 1917 yil 27 noyabr kuni bu haqda qaror qabul qilinadi. Qarorda shunday deyilgandi: «Turkistonda yashab kelayotgan turli millatga mansub aholi Rossiyada inqilob sodir etgan bolsheviklar tomonidan xalqlarning oʻz haq-huquqlarini oʻzlari belgilash haqidagi gaplaridan kelib chiqib, Turkistonni Rossiya sovet federativ sotsialistik respublikasi tarkibida muxtor hudud deb eʻlon qiladi». 28 noyabr kuni davom etgan yigʻilishda qurultoyga kelgan vakillar Turkistonda tashkil topayotgan yangi muxtor davlatning nomi «Turkiston Muxtoriyati» deb atalishi uchun ovoz beradi. Shuningdek, Turkiston oʻlkasida hokimiyat Turkiston Muxtoriyati muvaqqat kengashi va Turkiston Muxtoriyati xalq majlisiga oʻtishi haqida qaror qabul qilinadi.



1917-yil 27-noyabrda Turkiston muxtoriyati e'lon qilindi. U parlament (milliy majlis), hukumat va harbiy qo'mondonlikdan iborat bo'lgan. Muxtoriyat hukumati raisligiga Mustafo Choqay saylangan. Muxtoriyatda konstitutsion boshqaruv tamoyillari asosida faoliyat olib borish, barcha millat va din vakillarining teng huquqliligini ta'minlash ko'zda tutilgan edi. Turkiston muxtoriyati mavjudligi qisqa – atigi ikki oy davom etdi. 1918-yil fevral oyida bolsheviklar tomonidan Qo'qon shahri qattiq hujumga uchradi. Minglab begunoh odamlar o'ldirildi, Qo'qon shahri vayron qilindi. Bu voqea Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakatiga qaratilgan ochiq tajovuz edi.

Turkiston muxtoriyati tuzilgach, hukumat vakillari hududlarda muxtoriyat tuzilmalarini tashkil eta boshlashadi. Taniqli va tajribali huquqshunoslar jalb etilib, Muxtoriyat konstitutsiyasini tayyorlash ishlariga kirishiladi. Muxtoriyat hukumati tomonidan o'zbek, qozoq va rus tillarida hukumat gazetalar nashr etila boshlanadi. Yangi tashkil etilgan davlat uchun uchun mudofaa ishlari ham juda dolzarb edi. Shu sababli hukumat armiya tashkil etishga kirishadi. Muxtoriyat mudofaa vaziri Ubaydulla Xo'jayev qisqa muddatda 2 mingdan oshiq askarga ega armiya tuzadi. Shuningdek, o'sha paytda Qo'qon uyezdi militsiya otryadlari boshlig'i Ergash qo'l ostida ham muxtoriyat armiyasiga yordamga shay bo'lgan minglab mirshab bor edi. Turkiston muxtoriyati hukumati o'z tuzilmalarini tashkil etar ekan, bolsheviklar tomonidan Toshkentda ham alohida avtonom respublika tuzish harakatlari boshlanadi. 1918 yil yanvar oyida Toshkentda Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlarining favqulodda IV syezdi bo'lib o'tadi. Unda o'lka bolsheviklarining Turkistonda RSFSR tarkibiga kiradigan avtonom respublika tuzish taklifi qabul qilinadi. Ular bu davlatga Turkiston sovet sotsialistik avtonom respublikasi (TASSR) deb nom berishadi. Bundan tashqari, s'yezdda Turkiston muxtoriyati noqonuniy tuzilma deb e'lon qilinadi. Qo'qonga harbiy yurish qilib, muxtoriyatni ag'darib tashlash masalasida bir qarorga kelinadi. Toshkentda bolsheviklar tomonidan tuzilgan muxtoriyat aslida nomiga tuzilgan bo'lib, maqsad Turkistonni bolsheviklarga mutlaq bo'ysundirish edi. Qo'qonda tuzilgan muxtoriyat



kuchayib ketsa keyin ularni yengish qiyin bo'lardi. Buni yaxshi anglagan Toshkent bolsheviklari rahbari Kolesov Moskvadan yordam kuchlari yuborishni so'raydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Turkiston muxtoriyati o'zbek xalqining siyosiy tarixida unutilmas iz qoldirgan tarixiy voqealardan biridir. U zamonaviy O'zbekiston davlatining tarixiy ildizlarini, milliy istiqlol g'oyalarining shakllanish bosqichini ifodalaydi. Garchi uning umrboqiyligi qisqa bo'lgan bo'lsa-da, bu harakat o'zbek milliy davlatchiligining tamal toshini qo'ygan, mustamlakachilikka qarshi kurashda muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boymirza Hayit. Turkiston Rossiya va Xitoy orasida. – Toshkent: Sharq, 1999.
2. Boymirza Hayit. Bosmachilik. Turkiston milliy kurashi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2001.
3. G'ani Karim. Jadidlar va istiqlol. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
4. Mustafa Cho'qay. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
5. Abdurauf Fitrat. Milliy istiqlol g'oyalari. – Toshkent: Fan, 2005.
6. Ziyo Saidov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2018.
7. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.